

## AVESTO- G'ARBIY SUG'D AHOLISINING QADIMGI TARIXI HAQIDA MA'LUMOT BERUVCHI ILK YOZMA MANBA

**Uzoqova Mahfuza Abdusalomovna**

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi**  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19642129>

**Annotatsiya:** “Avesto–G’arbiy Sug’d aholisining qadimgi tarixi haqida ma’lumot beruvchi ilk yozma manba.” mavzusi haqida qisqacha ma’lumot. Maqolada Avestoning zardushtiylik dinining muqaddas kitobi ekanligi, shuningdek Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari haqida, Garbiy Sug’dning qadimgi aholisining ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy hayoti, diniy va axloqiy falsafiy qarashlari ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** Avesto, G’arbiy Sug’d, Markaziy Osiyo, zardushtiylik, Axuramazda, Yasna, Yasht, Visparad, Videvdat, nmana, vis, zantu, daxyu.

**Annotation.** This paper provides brief information on the topic "The Avesta is the First Written Source on the Ancient History of Western Sogdia." The article examines the Avesta as the holy book of Zoroastrianism, providing insights into the ancient peoples of Central Asia, as well as the socio-economic, political, religious, and moral-philosophical views of the ancient population of Western Sogdia.

**Keywords:** Avesta, Western Sogdia, Central Asia, Zoroastrianism, Ahura Mazda, Yasna, Yasht, Visperad, Vendidad, nmana, vis, zantu, dahyu.

**Аннотация.** Краткая информация по теме: «Авеста — первый письменный источник по древней истории населения Западного Согда». В статье Авеста рассматривается как священная книга зороастризма. Также освещаются сведения о древних народах Центральной Азии, социально-экономической, политической жизни, религиозных и морально-философских взглядах древнего населения Западного Согда.

**Ключевые слова:** Авеста, Западный Согд, Центральная Азия, зороастризм, Ахурамазда, Ясна, Яшт, Висперед, Вендидад, нмана, вис, занту, дахью.

Ma’lumki G’arbiy Sug’d hududi qadimdan aholi yashagan tamaddunlardan biri bo’lib, bu hudud aholisi sug’dliklar deb atalgan va ko’plab siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jarayonlarni boshidan o’tkazgan. Mazko’r jarayonlar haqida o’sha davrda bitilgan yozma yodgorliklar ma’lumot beradi. Garbiy Sug’d qadimgi aholisi tarixi, shuningdek Markaziy Osiyo xalqlari tarixi haqida ma’lumot beruvchi eng muhim ilk yozma manba “Avesto” kitobidir. “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo’lib, bu dinning asoschisi Zardushtdir. Zardusht ushbu dinning payg’ambari va faol targ’ibotchisi hisoblanib, taxminan mil. avv. VII – VI asrlarda dunyoga kelgan tarixiy shaxs hisoblangan. (Kingsliy P. 1990. Pp.245-246, Sulaynonov R, Ishoqov. M. 1999: 45-54) Zaratushtra eroncha so'z bo'lib, ushtra-tuya, zarat-sariq degan ma'nolarni anglatadi. Zardusht yakka xudolik – Axuramazdani ta’limotini dastlab Markaziy Osiyoda va keyinroq Eronda borib tarqatadi. Uning ta’limoti umumiy hisobda yigirma bir nask (kitob) dan iborat bo’lib, bizga qadar ulardan faqat beshtasigina yetib kelgan. (Homidov. H. 2001: 12. Doniyorov.A. 2020: 25.)

“Avesto” so’zi “o’rnatilgan, qat’iy qilib belgilangan qonun qoidalar” degan ma’noni bildiradi. Bizgacha yetib kelgan “Avesto” ning saqlanib qolgan qismlari quyidagilardan iborat: yasna -72 bobdan iborat gotlar tashkil qiladi. Visparad – ibodat matnlaridan iborat bo’lib, 24 bobni o’z ichiga oladi. Videvdat (yoki Vendidat) – devlarga qarshi qonun bo’lib, 22 bobdan iborat. Yasht -turli xudolarni sharaflovchi qadimgi madhlardan iborat bo’lib, Axuramazda va yaztlarni madh etuvchi

22 qo'shiq va gimni o'z ichiga oladi. Xurda Avesto – “Kichik Avesto” sifatida tarjima qilinib, o'rtta fors tilida yozilgan va kundalik ibodat kalimalarini o'z ichiga olgan.

“Avesto”da eng qadimgi hududlarning nomlari Yasht kitobining uchinchi va Videvdatning birinchi bobida keltirilgan. Yasht ariylarining yerlari haqida quyidagicha e'lon qiladi: “U mamlakatning jasur sardorlari ko'pdan – ko'p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko'llar to'lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Porutadagi Iskata, Xarayvadagi Mouru, Sug'ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi”. (Сагдуллаев А. 1996: 21.) Avestoda Sug'diyona hududi Gava So'g'da deb atalgan. Sug'd aholisi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. G'arbiy Sug'd aholisi ham dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Avestoda jamiyat ijtimoiy tarkibi haqida gap ketganda birinchi navbatda nmana atamasini uchratamiz. Nmana bu oila degani, oila boshlig' nmanapati deyilgan.

“Avesto” ijtimoiy tarkibida nmanadan keyin “vis” atamasi keltirilgan. Urug' jamoasi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etgan. U barcha muhim siyosiy, ijtimoiy va huquqiy vazifalarni bajargan. Yaylov, ekinzorlar, kanallar vis mulki bo'lgan. Vis tepasida vispati turgan. Jamoani boshqarishda harbiy demokratiya prinsiplariga amal qilingan. Qabila zantu, qabila boshlig' zantupati deyilgan. Qabilalar ittifoqi daxyu deb atalgan. Daxyu bu viloyat, yirik hududiy birlik bo'lib, bir necha qabilalar yashagan. Daxyu boshlig'i daxyupati deb yuritilgan. (Asqarov. A. 1994: 113).

Avesto qadimgi jamiyat a'zolarini to'rt toifaga bo'ladi: kohinlar, jangchi askarlar, chorvadorlar va hunarmandlar. Agar o'sha davr jamiyati a'zolari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, qadimgi dehqonchilik mintaqalarida dastlab boshqaruv tizimining tepasida kohinlar turgan. Ular “chorva va keng yaylovlar egasi” hisoblangan. Jangchi askarlar bu oriylar bo'lib, kohinlardan keyingi mulk egalari bo'lganlar. Asosiy boylik chorva hisoblangan. (Асқаров. А. 2015: 96.) Hunarmandlar mehnat, harbiy qurollar, zargarlik, kulolchilik va to'qimachilik kasbini ziroatchilikdan ajralmagan holda olib borganlar.

Zardushtiylik dinida imon uch tatanchga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyliqi. Avestoda bergan so'zning uddasidan chiqish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish imonlilik alomatidir deyilgan.

Zardusht ta'limotida olov, yer, tuproq, suv va havo muqaddas hisoblangan. Ularni iflos qilish katta gunoh deb qaralgan.

G'arbiy Sug'd aholisi ham zardushtiylik diniga e'tiqod qilishgan. Dasht cho'lda yashovchi sug'dliklar mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Daryo va ko'llar bo'yida yashovchi aholi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Zardushtiylik dinining tarqalishi jamiyatda shaharlarning paydo bo'lishi va taraqqiyotini tezlashtirdi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soldi. Tabiatga bo'lgan munosabatlar o'zgardi. Avesto manbasi tufayli qadimda qadimda O'rtta Osiyo hududlarida tub joyli sug'diy, bohtariy, xorazmiy, marg'ush, tur qabilalari yashaganliklarini bilamiz.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Асқаров. А Ўзбекистон тарихи Тошкент 1994.
2. Асқаров. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент. 2019.
3. Doniyorov. A Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. Toshkent 2020
4. Сагдуллаев. А Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент 1996
5. Kingsley F. The Greek Origin of the Sixth-Century Dating of Zoroaster / Bulletin of the School

of Oriental and African Studies, 1990, T 53 (2). Pp. 245-265, Сулаймонов Р. Исхаков М. Заратустранния ватини ва кшаган даврига оид мулохазалар O'zbekiston tarixi: 1999. Nel 45-53-бетлар.

6. Frye R. N. Zoroastrians in Central Asia in Ancient Times // Journal of the K. R. Cama Oriental Institute, 1992 T 58 Pp 6-10.

7. Хомидов Х. "Авесто" файзлари. Тошкент. Халқ мероси, 2001. 12-6

8. William M. "Yasna"/Encyclopaedia Iranica, online edition. New York, 2006 (www.ramicaonline.org)

